

MARKAZIY OSIYO VA XORIJIY DAVLATLARNING INVESTITSIYA QONUNCHILIGINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Abdiyeva Shahrizoda

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi.

Email: Shahrizodaabdiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174861>

Annotatsiya. Mazkur maqola Markaziy Osiyo davlatlari va xorijiy mamlakatlardagi, jumladan Qozog'iston, AQSh va Germaniyadagi xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga oid qonunchilikni qiyosiy huquqiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada har bir davlatning investitsion siyosati, iqtisodiy strategiyalari va huquqiy muhitining xususiyatlari yoritiladi. Unda huquqiy barqarorlik, moliyaviy rag'batlantirish, soliq imtiyozlari va milliy xavfsizlik bo'yicha mexanizmlar bat afsil tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola global tendensiyalar, xususan yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillarining xorijiy investitsiyalarni boshqarishdagi o'rnnini ko'rsatadi. Germaniya texnologik innovatsiyalar va yashil energiya sohalariga e'tibor qaratsa, AQShda yuqori texnologiyalar va startaplar rivojlanmoqda. Qozog'iston esa tabiiy resurslarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantrish orqali xorijiy investorlarni jalg qilmoqda.

Maqolada xorijiy sarmoyadorlar uchun tavsiyalar keltirilgan bo'lib, investitsiya muhitining barqarorligi, soliq tizimi va rag'batlar, hamda strategik tarmoqlarni aniqlash bo'yicha muhim jihatlar yoritilgan. Ushbu qiyosiy tahlil turli mamlakatlarning investitsiya siyosatini o'rganishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Xorijiy investitsiyalar, investitsiya qonunchiligi, AQSh investitsion muhiti, soliq imtiyozlari, barqaror rivojlanish, investitsiya xavfsizligi, strategik tarmoqlar, qiyosiy huquqiy tahlil, huquqiy barqarorlik, moliyaviy rag'batlantirish.

COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF THE INVESTMENT LEGISLATION OF CENTRAL ASIA AND FOREIGN COUNTRIES

Abstract. This article is devoted to a comparative legal analysis of the legislation on attracting foreign investments in Central Asian countries and foreign countries, including Kazakhstan, the USA and Germany. The article highlights the features of each country's investment policy, economic strategies, and legal environment. It provides a detailed analysis of mechanisms for legal stability, financial incentives, tax incentives, and national security. Also, the article shows the role of global trends, in particular, the principles of green economy and sustainable development in the management of foreign investments. While Germany focuses on technological innovation and green energy, the US is developing high-tech and startups. Kazakhstan is attracting foreign investors by developing an economy based on natural resources.

The article provides recommendations for foreign investors, highlights important aspects of the stability of the investment environment, the tax system and incentives, and the identification of strategic sectors. This comparative analysis has theoretical and practical significance in studying the investment policy of different countries.

Keywords: Foreign investment, investment law, US investment climate, tax incentives, sustainable development, investment security, strategic industries, comparative legal analysis, legal stability, financial incentives.

СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН.

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительно-правовому анализу законодательства о привлечении иностранных инвестиций в странах Центральной Азии и зарубежных странах, в том числе в Казахстане, США и Германии. В статье выделены особенности инвестиционной политики, экономической стратегии и правовой среды каждой страны. В нем представлен подробный анализ механизмов правовой стабильности, финансовых стимулов, налоговых льгот и национальной безопасности. Также в статье показана роль мировых тенденций, в частности, принципов зеленой экономики и устойчивого развития в управлении иностранными инвестициями. В то время как Германия фокусируется на технологических инновациях и зеленой энергетике, США развиваются высокие технологии и стартапы. Казахстан привлекает иностранных инвесторов, развивая экономику, основанную на природных ресурсах.

В статье даны рекомендации для иностранных инвесторов, освещены важные аспекты стабильности инвестиционной среды, налоговой системы и льгот, а также определения стратегических отраслей. Данный сравнительный анализ имеет теоретическое и практическое значение при изучении инвестиционной политики разных стран.

Ключевые слова: Иностранные инвестиции, инвестиционное право, инвестиционный климат США, налоговые льготы, устойчивое развитие, инвестиционная безопасность, стратегические отрасли, сравнительно-правовой анализ, правовая стабильность, финансовые стимулы.

Kirish

Globalizatsiya sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish har bir davlat uchun iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa xorijiy mamlakatlarning investitsiya qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish ushbu hududlarda iqtisodiy islohotlar samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlari – O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning investitsiya qonunchiligi xususiyatlarini AQSh va Germaniya kabi xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan solishtirishni o‘z ichiga oladi.

Markaziy Osiyo Davlatlarida Investitsiya Qonunchiligi

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida investorga bir qancha huquqlar berilgan bo‘lib, unda “Investor:

- ✓ O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lmagan investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirishga, investitsiya qilishni amalga oshirish hajmlarini, turlarini, shakllarini, sohasini va yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilashga;
- ✓ investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzishga;
- ✓ o‘z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilishga, ulardan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga, shuningdek investitsiya faoliyati natijalarini sotishga va olib chiqishga;
- ✓ investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadlarni soliqlar, yig‘imlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar (bundan buyon matnda soliqlar va to‘lovlar deb yuritiladi) to‘langanidan so‘ng mustaqil va erkin tarzda tasarruf etishga;
- ✓ o‘zi qabul qilgan barcha turdag‘i majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag‘larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning ta’minoti sifatida o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan foydalanishga;
- ✓ o‘z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilingan taqdirda munosib kompensatsiya olishga;
- ✓ kreditlar va qarzlar tarzidagi pul mablag‘larini jalb etishga;
- ✓ davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular mansabдор shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari natijasida yetkazilgan zararlar uchun tovon olishga haqli.

Suningdek, ushbu qonunning 11-moddasida - Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi:

- birja, tanlov va tender savdolarining, elektron do‘konlarning va kim oshdi savdolarining ishtirokchisi bo‘lishga;
- investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish yuzasidan shartnomalar tuzishga;

- agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, o‘zining investor oldidagi majburiyatlarini bajarishga boshqa shaxslarni jalb qilishga haqli.¹ ekanligi keltirib o’tilgan.

Qozog‘iston – Markaziy Osiyo mintaqasining eng yirik iqtisodiyoti bo‘lib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun doimiy ravishda qonunlarni takomillashtirib boradi. 1990-yillarning oxirida mustaqil bo‘lganidan so‘ng, Qozog‘iston xorijiy kapitalni mamlakatga jalb qilishni o‘zining iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi.

Ushbu maqolada Qozog‘istonning investitsiya qonunchiligi, asosiy qonuniy mexanizmlari va xorijiy investorlarga taqdim etilayotgan imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Qozog‘istonning investitsiya qonunchiligi asosan “Investitsiyalar to‘g‘risidagi qonun” (2003 yil) va uning qo‘srimcha tahrirlari asosida qurilgan. Ushbu qonun mamlakatga investitsiya kirishini boshqaradi va quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

✓ Investitsiyalarni himoya qilish: Qozog‘istonning investitsiya qonunchiligi, asosan, xorijiy investorlarga turli kafolatlarni taqdim etadi. Mamlakatda xorijiy investorlarga nisbatan soliq imtiyozlari, mulkni qaytarish kafolatlari va milliyashtirishdan himoya mavjud. Bu kafolatlar investitsiyalarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan.

✓ Soliq imtiyozlari: Xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari tizimi, xususan, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun, soliq va bojxona to‘lovlarining qisqartirilishi imkoniyatlarini beradi. Bu imtiyozlar investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

✓ Tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zlashtirish uchun, Qozog‘iston hukumati turli moliyaviy vositalarni taklif etadi. Shu bilan birga, investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida, investorlarga soliq stavkalarining o‘zgarishsiz saqlanishi kafolatlanadi.²

Bundan tashqari, Qozog‘istonning investitsiya qonunchiligi xorijiy kapitalni himoya qilishda maxsus mexanizmlarga ega. Mamlakatda xorijiy investorlar uchun quyidagi kafolatlar mavjud:

✓ Xorijiy investitsiyalarning mustahkam himoyasi: Qozog‘istonning qonunlari mamlakatdagi investorlarning mulkiy huquqlarini himoya qiladi. Xorijiy investorlarga milliyashtirish va musodara qilish xavfi yo‘q. Bunda, investorlar faqat qonuniy tarzda davlatning xalqaro shartnomalari asosida himoya qilinishini kafolatlashadi.

✓ Arbitraj tizimi: Qozog‘istonda xalqaro arbitraj tizimi yaxshi rivojlangan bo‘lib, u xorijiy investorlarga mahalliy huquqiy tizimda muammolarni hal qilishda yordam beradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni,
<https://lex.uz/uz/docs/-4664142>;

² <https://www.invest.gov.kz/>;

Xorijiy investitsiyalarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizm sifatida, Qozog‘iston xalqaro shartnomalarni, shu jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa tashkilotlarning qarorlarini hurmat qilishni ta’minlaydi.³

Qozog‘istonning investitsiya jalb qilish strategiyasi xalqaro hamkorlikka keng etiborni qaratadi. Qozog‘iston xalqaro investitsiya shartnomalari va bitimlarining asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Mamlakat Xalqaro valyuta fondi (IMF), Jahon savdo tashkiloti (WTO) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi. Xalqaro tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar Qozog‘istondagi investitsiya muhitini barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Qozog‘iston hukumati xorijiy investitsiyalarni muayyan sanoat tarmoqlariga yo‘naltirishga harakat qilmoqda. Masalan, neft-gaz sanoati, qishloq xo‘jaligi, va boshqa strategik sohalar uchun maxsus investitsiya dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar investorlarga yuqori darajada imtiyozlar taqdim etadi. Xususan, Xitoy, Rossiya va Yevropa Ittifoqi bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy hamkorlik dasturlari Qozog‘iston uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Yangi investitsiya loyihalari xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.⁴

Xorijiy Davlatlarning Investitsiya Qonunchiligi

Xorijiy mamlakatlarning investitsiyaviy siyosatiga nazar soladigan bo‘lsak, AQShda xorijiy investitsiyalarni tartibga soluvchi qonunchilik murakkab bo‘lib, u milliy xavfsizlik, iqtisodiy o‘sish, va xalqaro investorlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan. AQSh hukumati xorijiy investitsiyalarni milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun CFIUSni boshqaradi. 2018-yilda qabul qilingan.⁵ Foreign Investment Risk Review Modernization Act (FIRRMA) qonuni CFIUS vakolatlarini kengaytirib, texnologiyalar, infratuzilma va shaxsiy ma’lumotlar bilan bog‘liq loyihalarni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini berdi. Ba’zi investitsiyalar prezident farmoni bilan bekor qilinishi mumkin.

AQSh 50 dan ortiq davlatlar bilan ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (BITs) tuzgan. Ushbu kelishuvlar xorijiy investorlarga milliy iqtisodiy loyihalarda adolatli munosabat va himoya kafolatlaydi. Masalan, AQSh-Meksika-Kanada kelishuvi (USMCA) investorlarni himoya qilish uchun maxsus qoidalar kiritgan.⁶

Yangi qonunchilik milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun xorijiy sarmoyalarni cheklashni ko‘zda tutadi.

³<https://www.worldbank.org/en/businessready>;

⁴ <https://primeminister.kz/>;

⁵ Blakey, J. R. (2019). The Foreign Investment Risk Review Modernization Act: The Double-Edged Sword of US Foreign Investment Regulations. Loy. LAL Rev., 53, 981;

⁶ Villarreal, A. M., & Fergusson, I. F. (2020). NAFTA and the United States-Mexico-Canada Agreement (USMCA). Congressional Research Service Report;

Masalan, 2023-yilda prezident Bayden ba'zi texnologik sohalarga xorijiy investitsiyalarni cheklovchi farmon chiqardi. CFIUS orqali yashirin texnologik transaktsiyalarni nazorat qilish, shuningdek, atrof-muhit va iqtisodiy ta'sirni baholash kabi yangiliklar amalga oshirilmoqda.

Kelajakda investitsiya cheklovlarini kengaytirish masalalari ham ko'rib chiqilmoqda.

AQShning xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq qonunchiligi xalqaro kapitalni jalb qilishda samarali tizim hisoblanadi, biroq u milliy xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishni ham birlamchi o'ringa qo'yadi. Qo'shimcha ma'lumot uchun Congressional Research Service va AQSh Savdo Departamenti hisobotlariga murojaat qilishingiz mumkin.⁷

To'g'ridan-to'g'ri xalqaro investitsiyalar Germaniya bo'yicha bir necha yillardan beri biznesning joylashuvi haqidagi munozaralarda katta rol o'ynadi. Germaniyaning chet eldag'i yuqori to'g'ridan-to'g'ri sarmoyasi va Germaniyaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kichik oqimi Buyuk Britaniya va Frantsiya bilan solishtirganda, ko'pincha Germaniyaning biznes joylashuvi sifatida zaifligining belgisi sifatida qaraladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun turli biznes joylarining jozibadorligi alohida mamlakatlarning milliy to'lov balansi ma'lumotlari asosida taqqoslanadi.

Biroq, agar milliy to'lov balansi ma'lumotlari izchil qayd etilmasa, bunday taqqoslashlar keskin buzilishlarga olib kelishi mumkin. Germaniyada, xususan, turli xil ro'yxatga olish usullari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risida juda ziddiyatli ma'lumotlarga olib keladi. Ushbu maqolada xalqaro to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha turli statistik manbalarning axborot qiymatini tahlil qilish va taqqoslash orqali to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha munozaralarni ob'ektivlashtirishga harakat qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning determinantlari juda xilma-xildir va ko'pincha empirik tarzda sinab ko'rish qiyin. Hozirgi munozarada ish haqining yuqoriligi, Germaniya markasining soliq yuki kabi keskin oshishi va Germaniya iqtisodiyotining keng ko'lamli tartibga solinishi o'tmishda nemis to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisobining yomonlashuvining sabablari sifatida gayta-qayta tilga olinadi.⁸

Germaniyada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish tartibiga alohida e'tibor qaratiladi. Mamlakat Yevropa Ittifoqining iqtisodiy markazi hisoblanadi va ilg'or ishlab chiqarish hamda innovatsiyalar sohasida yetakchilik qiladi.

⁷ Johnson, N. P. (1982). Congressional research service. Legal Reference Services Quarterly, 1(4), 5-10;

⁸ Agarwal, J. P., Gubitz, A., & Nunnenkamp, P. (1991). Foreign direct investment in developing countries: The case of Germany. Tübingen: Mohr;

Germaniyaning iqtisodiy tizimi erkin bozor tamoyillariga asoslangan bo‘lib, davlat nazorati va rejalashtirilgan iqtisodiyot elementlarini ham o‘z ichiga oladi.⁹

Germaniyada xorijiy investorlar mahalliy biznes subyektlariga teng huquqlar berilgan bo‘lib, investitsiyalar mustahkam huquqiy himoya ostida. Xususan, mulk huquqi va kontraktlar bo‘yicha kafolatlar ta’minlangan.

Germaniya yuqori soliqlar darajasi bilan tanilgan bo‘lsa-da, xorijiy investorlar uchun ayrim imtiyozlar va soliq chegirmalari mavjud. Malakali ishchi kuchi, ilg‘or texnologiyalar va kuchli infratuzilma xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim omillar hisoblanadi. Germaniya xorijiy investitsiyalarni milliy xavfsizlik asosida baholaydi. Ayniqsa, strategik sohalar, jumladan, energetika, telekommunikatsiya va texnologiyalar bo‘yicha investitsiyalarga maxsus e’tibor qaratiladi. Agar investitsiya milliy xavfsizlikka tahdid solsa, hukumat uni rad etish huquqiga ega.¹⁰

Germaniya avtomobilsozlik, kimyo sanoati, maishiy texnika va mexanika ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ko‘proq ushbu sohalarda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yashil energiya va raqamli texnologiyalar sohasida ham yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Xulosa

Markaziy Osiyo va xorijiy davlatlarning investitsiya qonunchiligini qiyosiy tahlil qilishda, har bir davlatning iqtisodiy strategiyalari, huquqiy asoslari va investorlarni jalb qilishga bo‘lgan yondashuvlari o‘ziga xosdir. Germaniya, AQSh va Qozog‘iston xorijiy investitsiyalar uchun turli xil huquqiy mexanizmlarni joriy etgan. Germaniya va AQShda xorijiy investorlar uchun huquqiy muhit mustahkam bo‘lib, sud tizimining mustaqilligi, mulk huquqining himoyasi va shartnomalar ijrosini ta’minalash ustuvor hisoblanadi. Qozog‘istonda esa xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish uchun maxsus iqtisodiy zonalar va davlat kafolatlari taklif qilinadi. Ushbu zonalar cheklangan soliqlar va boshqa moliyaviy imtiyozlar orqali investorlar uchun qulaylik yaratadi.

Soliq tizimi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Germaniya xorijiy investorlarga R&D faoliyati uchun soliq imtiyozlari taqdim etadi. AQShda esa soliq siyosati murakkabroq, ammo yuqori texnologiyalar va startaplar sohasida federal darajada rag‘batlantirish mavjud. Qozog‘iston esa, asosan, soliq imtiyozlarini ko‘paytirish va milliy iqtisodiyotning energiya sektoriga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga qaratilgan.

Qozog‘istonda energiya resurslari va qishloq xo‘jaligi asosiy ustuvor sohalar hisoblanadi.

⁹ Agarwal, J. P., Gubitz, A., & Nunnenkamp, P. (1991). Foreign direct investment in developing countries: The case of Germany. Tübingen: Mohr;

¹⁰ <https://globaledge.msu.edu/countries/germany>;

Tabiiy boyliklarning ko‘pligi mamlakatni investorlar uchun jozibador qiladi. Germaniyada esa avtomobilsozlik, yashil energiya va sanoat avtomatlashtirish asosiy yo‘nalishlardir. Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalar sohasida rivojlanish sezilarli darajada rag‘batlantiriladi.

Yuqori texnologiyalar, startaplar va energetika sohasida xorijiy investitsiyalar jalb qilinadi.

AQShda xususiy sektorning o‘rni katta bo‘lib, tadbirkorlik muhiti rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi.

AQSh va Germaniya xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda milliy xavfsizlikka alohida e’tibor qaratadi. Ba’zi strategik sohalarda, xusan, texnologik va mudofaa tarmoqlarida xorijiy investorlar uchun cheklovlar qo‘yiladi. Qozog‘istonda bunday cheklovlar kamroq bo‘lib, davlat ko‘proq investorlarni jalb qilishga e’tibor qaratgan.

Hozirgi vaqtida barcha davlatlar yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillariga moslashmoqda. Germaniya bu borada yetakchi bo‘lib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. AQShda esa energiya va texnologik innovatsiyalar bu yo‘nalishda rivojlanish uchun asos yaratmoqda. Qozog‘iston yashil energiya va ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishni maqsad qilgan.

Davlatlarning investitsiya qonunchiligi ularning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini aks ettiradi. Germaniya va AQSh rivojlangan iqtisodiyotlari bilan xorijiy sarmoyadorlar uchun barqarorlik va ishonchni ta’milasa, Qozog‘iston rivojlanayotgan iqtisodiyoti va tabiiy resurslari bilan investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Har bir davlatning qonunchilik xususiyatlarini o‘rganish, xorijiy investorlar uchun qulay muhitni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>;
2. <https://www.invest.gov.kz/>;
3. <https://www.worldbank.org/en/businessready>;
4. <https://primeminister.kz/>;
5. Blakey, J. R. (2019). The Foreign Investment Risk Review Modernization Act: The Double-Edged Sword of US Foreign Investment Regulations. Loy. LAL Rev., 53, 981;
6. Villarreal, A. M., & Fergusson, I. F. (2020). NAFTA and the United States-Mexico-Canada Agreement (USMCA). Congressional Research Service Report;
7. Johnson, N. P. (1982). Congressional research service. Legal Reference Services Quarterly, 1(4), 5-10;

8. Agarwal, J. P., Gubitz, A., & Nunnenkamp, P. (1991). Foreign direct investment in developing countries: The case of Germany. Tübingen: Mohr;
9. Agarwal, J. P., Gubitz, A., & Nunnenkamp, P. (1991). Foreign direct investment in developing countries: The case of Germany. Tübingen: Mohr;
10. <https://globaledge.msu.edu/countries/germany>;